

“O‘ZBEK TILSHUNOSLIGI VA ADABIYOTSHUNOSLIGI TARAQQIYOTI, XALQARO HAMKORLIK MASALALARI”

mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

**O‘ZBEK TILI DARSLARIDA MATNNI O‘QIB TUSHUNISHGA
QARATILGAN MASHQ VA TOPSHIRIQLAR USTIDA ISHLASH**

Bo‘ranova Shoxista

Pedagogika fanlari nomzodi, dotsent

Saparbayeva Indira

Nukus DPI 1-kurs tayanch doktoranti

***Annotatsiya.** Mazkur maqolada o‘zbek tili darslarida matnni o‘qib tushunishga qaratilgan topshiriqlar mashqlar tizimining yaratilishi, maktab amaliyotida o‘zbek tilini o‘rgatishda o‘quvchilarda o‘zbekcha muloqot qila olish ko‘nikmalarini shakllantirishga qaratilgan usuliy tafsilotlarga qaratilgan fikr-mulohazalar berilgan.*

***Kalit so‘zlar.** tafakkur, dastur va darsliklar, xalqaro tadqiqotlar, ta’lim metodlari, vosita, usul, didaktik, grammatizm, tizim.*

***Аннотация.** В данной статье даны отзывы о создании системы упражнений на понимание текста на уроках узбекского языка, методических деталях, направленных на формирование у учащихся навыков общения на узбекском языке при обучении узбекскому языку в школьной практике.*

***Ключевые слова.** Мышление, программа и учебники, международные исследования, методы обучения, средство, метод, дидактика, грамматика, система.*

***Annotation.** This article will focus on reading and understanding the text in Uzbek language lessons-the creation of a system of exercises, feedback on the method of forming the skills of being able to communicate as a child in the study of the Uzbek language in school practice.*

***Keywords** Thinking, programs and textbooks, International Studies, educational methods, tool, method, didactic, grammaticalism, system.*

Kishilardagi barcha yaxshi fazilatlar - tilning mahsuli. O‘zbek tilini sevish, uni puxta o‘rganish, hosil qilingan malakalarni adabiy talaffuz va imlo qoidalariga muvofiq holda amalda to‘g‘ri qo‘llay bilish madaniylik belgisidir. Madaniy nutq esa orfoepiya, orfografiya hamda uslub talablariga muvofiq so‘zlash va yozishdir shubhasizki, o‘quvchilar o‘zbek tili darslarida matn ustida ishlash orqali mazkur ko‘nikmlarni tarkib toptirishadi. O‘zbek tilimiz-avlodlarni avlodlarga, asrlarni asrlarga ulovchi vosita bo‘lib tilini mukammal o‘rganish jarayonida o‘quvchilar uning serviqor qudratini bilib oladilar.

Maktab ta’limida o‘zbek tili o‘qitishdan asosiy maqsad o‘quvchilarda o‘zbek tilida fikrini to‘g‘ri, aniq, ravshan va go‘zal ifodalay olish ko‘nikmalarini shakllantirish va rivojlantirishdan iboratdir. Shuning uchun har bir so‘z, birikma va gapni barcha qirralari bilan to‘g‘ri, o‘rinli ishlata olishni o‘rgatish, o‘z nutqiga nisbatan ehtiyotkorlik tuyg‘usini shakllantirish o‘zbek tili mashg‘ulotlarining asosiy vazifasi sanaladi. Har bir davr ta’lim oldiga o‘z vazifasini qo‘yadi. Yuz yil oldingi ta’lim mazmuni bilan bugungisining o‘rtasida ancha farq bor, xususan, o‘zbek tili o‘qitish masalasida ham. Aslida til o‘qitish muayyan o‘zgarmas talablarga ega

“O‘ZBEK TILSHUNOSLIGI VA ADABIYOTSHUNOSLIGI TARAQQIYOTI, XALQARO HAMKORLIK MASALALARI”

mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

bo‘ladi, biroq zamonning ehtiyojiga ko‘ra mazkur mezonlar bosqichma-bosqich takomillashtiriladi. Bugun umumta‘lim maktablarida o‘zbek tili ta‘limida grammatizmdan voz kechib, nutqiy ko‘nikmalarni rivojlantirishni kun tartibiga qo‘ymoqda. To‘g‘ri, grammatik ma‘lumotlarsiz o‘zbek tili ta‘limini tasavvur etib bo‘lmaydi, biroq o‘quvchilariga quruq grammatik qoidalar orqali ham tilni o‘rgatib bo‘lmaydi. Zamonaviy o‘zbek tili ta‘limining asosiy muammosi nutqiy ko‘nikmalarni qanday qilib samarali rivojlantirishga erishishdir. Bu borada shuni ta‘kidlash kerakki, har bir hodisa muayyan tizimga ega ekan, nutqiy ko‘nikmalar ham shu tizimga mos rivojlantirilishi zarur. Zero, insoniyat tarixiy taraqqiyotning barcha davrlarida “Nimani o‘qitish va qanday o‘qitish kerak?” degan savolga javob izlab kelgan va hamon izlamoqda.

O‘zbek tili ta‘limi mazmunining yangilanishi mazkur sohada qilinishi kerak bo‘lgan ishlar ko‘lamini belgilab berdi. Respublikamizning birinchi Prezidenti ta‘lim sohasiga oid muammolarga to‘xtalib shunday degan edi: “Shu kungacha hech kim boshlang‘ich sinflarda va undan keyingi bosqichlarda o‘qiyotgan o‘quvchilarga qaysi sinfda nimani o‘qitish maqsadga muvofiqligini ilmiy nuqtai nazardan to‘la asoslab bergan emas”¹.

Ilmiy, ilmiy-metodik manbalarda ta‘lim mazmuni tushunchasi turlicha talqin qilinadi. Jumladan, rus pedagog-olimlari I.Ya.Lerner² va M.N.Skatkinlar ta‘lim mazmuniga o‘rganish uchun tanlangan va o‘quvchilarning o‘zlashtirishlariga mo‘ljallangan, metodik jihatdan ishlangan boy ijtimoiy tajribaning bir qismi sifatida qaraydilar. Pedagogika fanlari doktori Q.Husanboyevaning ta‘lim mazmuniga o‘qituvchini ham kiritishi³ nihoyatda to‘g‘ri yondashuv. Chunki til sathlaridan aynan fonetika va orfoepiyani o‘qitishda o‘qituvchining roli juda muhim bo‘lib, o‘quvchilar adabiy talaffuzni bevosita o‘qituvchidan o‘rganadilar.

Shu nuqtai nazardan qaraganda, ta‘lim mazmunining yoyilmasi o‘qitishning didaktik vositalari, jumladan, maktab darsliklari hisoblanadi.

O‘zbek tili o‘qitish bilan chet til o‘qitish metodikalari ham bir-biriga to‘la mos kelmaydi, shunday bo‘lsa-da amaliyotda qo‘llanmoqda. Grammatika o‘zbek o‘quvchisiga xorijiy tillarni o‘rganish uchun kerak bo‘ladi. O‘zbek tili o‘qitish metodikasida asosiy e‘tiborni nutqiy kompetensiyani rivojlantirishga qaratish, lingvistik kompetensiyani ham shunga yo‘naltirish mazkur sohada kutilgan natijani ta‘minlaydi. O‘qituvchilar uchun ham, talabalar uchun ham bitta metodika ishlanishi

1. Баркамол авлод – Ўзбекистон тараққиётининг пойдевори // И.А.Каримовнинг Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси 9-сессиясида сўзлаган нутқи, 1997 йил 29 август. –Т.: Маърифат-мадакдор, 2002. – 62 б.
2. Лернер Я. Дидактические основы методов обучения Текст. / И. Я. Лернер.–М. : Педагогика, 1981. – 186 с.
3. Хусанбоева Қ. Адабий таълим жараёнида ўқувчиларни мустақил фикрлашга ўргатишнинг илмий-методик асослари: пед. фан. док-ри дисс. автореф. –Т.: ТДПУ, 2006. – 262 б.

“O‘ZBEK TILSHUNOSLIGI VA ADABIYOTSHUNOSLIGI TARAQQIYOTI, XALQARO HAMKORLIK MASALALARI”

mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

kerak. Shu o‘rinda “mashq” va “topshiriq” atamalarini mohiyatan farqlash, ularning lingvodidaktikadagi o‘rni hamda ahamiyati haqida to‘xtalish joizdir. Metodist M.Saidov o‘quv materiallari sirasida o‘quv topshiriqlarini uch turga bo‘lib, ularni o‘zaro farqlaydi va, ko‘pincha, o‘qituvchilar o‘z ish faoliyatlari davomida “mashq”, “topshiriq” va “masala” tushunchalarini qorishtirib yuborishlarini ta‘kidlaydi. Olim pedagogika fanlari doktori A.G‘ulomovning “mashq ham o‘quv topshirig‘ining bir shakli, ham o‘qitishning muayyan bir usuli,” degan fikriga qo‘shiladi va topshiriq mashqning bir bo‘lagi, u, asosan, mashqning shartida o‘z ifodasini topishini, topshiriq mashqqa qaraganda torroq tushunchani ifodalashini e‘tirof etadi³.

Bizningcha, topshiriq mashqni o‘z ichiga oladi, topshiriqlar o‘quvchini yo‘naltiradi, fikrlashga undaydi; takrorga asoslangan mashqlar ko‘nikma va malaka hosil qilish uchun xizmat qiladi.

Tilshunoslikning “Fonetika” bo‘limi “Orfografiya” va “Orfoepiya” “Leksika”, “Morfologiya” bilan bevosita aloqador bo‘lganligi bois ularni o‘qitish vositalari ham bir-biriga chambarchas bog‘liq. Shu nuqtai nazardan mazkur ishda *o‘quv topshiriqlariga* o‘zgacha yondashildi. Darslik va qo‘llanmalarda ko‘p uchraydigan o‘quv topshiriqlar orasida sinonimik munosabat yo‘q. Biroq kuzatishlarimiz asosida ayta olamizki, uzoq yillardan beri amalda bo‘lgan qator darslik va qo‘llanmalarda mazkur ikki tushunchaning berilishida chalkashlik, birining o‘rnida boshqasining qo‘llanilishi kabi holatlarni ko‘rish mumkin.⁴

Ajdodlardan, umuman, insoniyat daholaridan bugungi kungacha yetib kelgan boy meros mahsuli bo‘lgan *iboralar, maqol, matal, hikmatli so‘zlar, tasviriy ifodalar* o‘zbek tili ta‘limining mazmunini tashkil etishi kerak, ulardan onda-sonda emas, balki har darsda, har o‘quv topshiriq tarkibida unumli foydalanish maqsadga muvofiq. O‘z o‘rnida va o‘z vaqtida o‘quvchilar tafakkuriga singdirilgan bu kabi milliy durdonalar ularning fikrlarini teranlashtirishga, dunyoqarashlarini kengaytirishga va o‘zlarida hosil bo‘lgan ijodiy tafakkur mahsulini ravon, aniq hamda tushunarli tarzda bayon eta olishlariga zamin yaratadi.

Amaldagi dastur va darsliklar o‘quvchini o‘zbek tili ta‘limi maqsadiga muvofiq mustaqil izlanishga undashi lozim. Bunday sharoitda darslikning eng muhim qismini nazariy ma‘lumotlar bazasi emas, balki o‘quvchiga o‘zbek tilimizning son-sanoqsiz imkoniyatlaridan unumli va o‘rinli foydalanishni o‘rgatadigan o‘quv topshiriqlari tashkil etmog‘i lozim. Chunki maktabda o‘zbek tili ta‘limi tilshunos tayyorlash maqsadini emas, til imkoniyatlaridan keng foydalana oladigan ijodiy tafakkur sohibini jamiyatga yetkazib berishni taqozo etadi. Demak, o‘quv topshiriqlari o‘quvchini izlanishga unday olsagina, ularni talab darajasida deb hisoblash mumkin

mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

bo‘ladi. Hozirda Respublika miqyosida amalda bo‘lgan maktab darsliklaridagi o‘quv topshiriqlarining ayrimlari belgilangan talablarni qondira olmaydi.

O‘quvchining og‘zaki nutqi tug‘ilib o‘sgan yeri, oilasi, yaqinlari ta’sirida shakllangan holda maktabga keladi. Ba’zan ularni o‘zlari o‘rganib qolgan holatdan adabiy talaffuz me’yorlari doirasiga o‘tkazish ancha qiyinchilik tug‘diradi. Bunday sharoitda o‘qituvchi, albatta, fonetika o‘qitish jarayonidagi dastlabki faoliyatni hududiy muammolardan kelib chiqqan holda talaffuzi qiyin nutq tovushlari ustida ishlashga qaratishdan boshlashi zarur. Aks holda, ayrim o‘quvchilar balog‘atga yetganda ham ba’zi nutq tovushlari talaffuzini eplay olmaydigan bo‘lib qolishadi. Bu kabi “nutqiy kemtiklik” madaniy davralarda o‘quvchiga bir umr xalaqit berishi mumkin. O‘qituvchi o‘z vaqtida og‘zaki nutqida muammolari bor o‘quvchilarga alohida e’tibor berib, maxsus talaffuz mashqlari ustida muntazam ishlasa, muammoga o‘rin qolmasligi aniq. Biroq bu borada maktabning amaldagi didaktik ta’lim vositalari(darslik, qo‘llanmalar)da fonetik mashqlarga maxsus o‘rin ajratilmagan.

Fikrimizcha, nutqiy ko‘nikmalarni rivojlantiruvchi maxsus o‘quv materiallarini shakllantirish tarixiy va zamonaviy tajribalardan kelib chiqadi. Bu boradagi jahon va mahalliy tajribalaridan unumli foydalanib muammolarni atroflicha o‘rganish ularning yechimini topish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Баркамол авлод – Ўзбекистон тараққиётининг пойдевори // И.А.Каримовнинг Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси 9-сессиясида сўзлаган нутқи, 1997 йил 29 август. –Т.: Маърифат-мададкор, 2002. – 62 б.
2. Лернер Я. Дидактические основы методов обучения Текст. / И. Я. Лернер.– М. : Педагогика, 1981. – 186 с.
3. Саидов М. Ўзбек мактабларининг 5-синфларида она тили таълими жараёнида тафаккурни ривожлантирувчи ўқув топшириқлари ва улардан фойдаланиш методикаси: пед. фан. ном-ди дисс. автореф.ТДПУ. –Тошкент, 2000. – 25 б.
4. Хусанбоева Қ. Адабий таълим жараёнида ўқувчиларни мустақил фикрлашга ўргатишнинг илмий-методик асослари: пед. фан. док-ри дисс. автореф. –Т.: ТДПУ, 2006. – 262 б.
5. Mengliboevna, B. S., & Sherali, M. (2021, October). The Need to Develop Students' Professional Competencies in Teaching Specific Methods of Teaching the Uzbek Language. In " ONLINE-CONFERENCES" PLATFORM (pp. 131-132).
6. Mengliboevna, B. S., & Atakhanovich, M. S. (2021). Phonetic-Lexical Community and Characteristics in Uzbek and Karakalpak Literature Text Lexemas. Pindus Journal of Culture, Literature, and ELT, 10, 6-8.
7. Ataxanovna, Y. G., Tajimuratovna, X. M., & Menglibayevna, B. S. (2023). ONA TILI DARSLARIDA NUTQIY KONIKMALARNI RIVOJLANTIRISH USULLARI. SCIENCE TIME JOURNAL, 1(3), 42-49.